

TOSHKENTNING TARIXIY OBIDALARI

Abduhamidov Doniyorbek Yodgorxōja o'g'li

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E- mail: doniyorbekabdulhamidov@gmail.com

Annotasiya: Mazkur maqolada Azim Toshkentning tarixiy yodgorliklari, manbalarda ularning o'rganilishi, Toshkentdagi bo'lib o'tgan zilzilalar va ularning yodgorliklarga ta'siri, Fanlar Akademiyasi olimlari tomonidan olib borilgan Arxeologik tadqiqotlar xususida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent, , Baroqxon, Ko'kaldosh, Tarixi Jadidayi Toshkand, Choch.

Kamoni Shoshiy Toshkent vohasi - O'zbekistonning yirik tarixiy - madaniy mintaqalaridan biri bo'lib, uning siyosiy tarixi hamda iqtisodiyotida katta ro'l o'ynagan. Mahalliy va eron yozma manbalarida voha Choch sifatida mashhur bo'lgan, Xitoy yodnomalarida esa Yueni, Chjeshi, Shi fors - arab tarixiy asarlarida Shosh tarzida tilga olingan. Ilk o'rta asrlar davrida (V- VIII asrlar) Choch tarkibida Iloq kenja viloyati bo'lib uning iqtisodiyotida kon - metallurgiya ishlab chiqarishi muhim ahamiyat kasb etgan. Choch atamasini o'zi tarixiy bo'lib mutaxassislarning fikricha shunchaki oddiy tosh emas balki qimmatbaho tosh degan ma'noni beradi. Qadimgi turkiy tilda Choch asl tosh - feruza ma'nosini anglatgan, binobarin bu ma'lumot Choch mulkining ma'nosini tosh qo'rg'on emas, balki qimmatbaho tosh mamlakati tarzida izohlash imkonini beradi.

VII - VIII asrning boshida Mingo'rikdagi shahar g'oyat gullab - yashnadi. Choch hukumdorlari saroylari ham dabdabali bezatilgan edi. U haqda Shoxnoma muallifining so'zlari bilan shunday deyish mumkin:

Shaharda paydo bo'ldi eng baland saroy,

Bog' - rog'u gulzor, soya salqin joy.

Ayvon devoriga chizilgan surat

Jang, shikoru shohlar bazmi keltirar hayrat. [1.B.5-7]

XVI asrda Toshkent shahrining Chorsu maydonida Toshkent hokimining vaziri - Ko'kaldosh tomonidan madrasa qurilgan. Ko'kaldosh madrasasining gumbazlari va peshtoqlari bilan bo'yi 20 metrga yetadigan ikki qavatli madrasa tepalikda qurilgani uchun uzoqdan ko'rinib turgan. Madrasa 1868- yilgi zilzilada qattiq zarar ko'rgan, 1902-1903- yillarda u qaytadan tiklangan. Biroq asosiy peshtoq va gumbazi tuzatilmay qolgan.

Peshtoqning yon tomonlari to gumbaz asosigacha va devorning kungurador qismi oddiy g'isht bilan tekkis qilib ishlab chiqilgan, peshtoqning yonlariga yarim doira shaklidagi ravoqlar burchaklarida guldastalar qurilgan. Biroq bular barchasi zilzilada tamomila qulab tushgan. Madrasa to'g'ri to'rtburchak shaklda bo'lib, tomonlari 45X65 metrdir. Qurilish rejasi XVI asardagi shu tipdagi binolardan deyarli farq qilmaydi. Uning Chorsu hovlisi bo'lib, atrofida hujralar va yovuzlik ayvonlar bor. Hovlining P simon yo'laklari qishki darsxonalarni masjid bilan ulaydi. Madrasani bezashda me'morlar asosan old tomoniga e'tibor qilganlar. Sirkor parchin va geometrik naqshlar bilan

bezatilgan hashamatli kirish peshtoqida ikki qavatli ravoq ishlangan. Peshtoqning ikki tomonida feruza rangli parchinlar bilan qoplangan baland gumbazlar bo'lgan. Madrasaning old tomonidagi darchalarga panjaralar o'rnatilishi binoning husniga - husn qo'shgan.

Baroqxon madrasasi - XV asr oxiri va XVI asr boshlarida qurilgan. Hovli atrofida hujralar va ichki tomonidan peshtoq bo'lib, madrasaning g'arbiy qismi birmuncha chiqqan. Poydevori toshdan, devorlarning qalinligi 3 metr bo'lib turli xajmdagi pishiq g'ishtlardan ishlangan. Madrasaning sharq tomonidagi ulkan peshtoqqa rang - barang sirkor g'ishtchalardan panno terilgan. U o'simliklar va geometrik naqshlar bilan hoshiyalangan. Asosiy peshtoqning orqa tomonida yana peshtoq va besh qirrali ravoq bor. G'arb tomondagi ichki peshtoq ko'k gumbazning tarkibiy qismi bo'lgan. Madrasaning to'rt burchagida qorixonalar joylashgan. Uning 22 metrli gumbazi ko'k sirkor g'ishtchalar bilan pardozlangan(gumbaz zilzila sabab qulab tushgan). Gumbaz ostidagi 4,5 metrli barabanga turli shakldagi sirkor g'ishtchalardan geometrik va o'simliksimon naqshlar terilgan, Qur'on suralari bitilgan.[2.B. 239-240]

Toshkent shahri teretoriyasida arxeologik tadqiqotlar ayniqsa 1966 - yilgi Toshkent zilzilasidan sōng keng kōlam kasb etdi.Ozbekisiton Fanlar Akademeyisining haqiqiy a'zosi Yahyo G'ulomov tashabbusi bilan maxsus Toshkent arxeologik ekspeditsiya tashkil etildi. Toshkent vohasida ilk shahar madaniyatining shakllanib shaharlarning qad ko'tarishi shu o'lkada yashagan qadimgi chorvador va dehqonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi ulkan tarixiy jarayon bo'lib bu jarayon shubhasiz o'lkaning o'zlashtirib obod etilishi ayniqsa tashqi savdoning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq.

X asrda yozilgan Xudud ul olam Olamning chegaralari geografik asarida Choch bu - katta viloyat, xalqi jangovar va sahiydir. U yerda kamon va o'q - yoy yasaladi. Binkat Chochning poytaxti hisoblanadi. Shoshda yasalgan kamon o'sha vaqtlarda butun Sharqda "Kamoni Shoshiy" nomi bilan mashhur bo'lib, u uzoqqa otilishi va nishonga aniq tegishi Sharq mualliflarining asarlarida ta'riflanadi.Shaharning shimoliy chegarasi va eski shahardagi o'rta asr arxitektura obidalaridan Qaffol Shoshiy maqbarasi va Baroqxon madrasasidan shimolroqda oqib o'tadigan Kalkavuz anhorining o'ng sohili bo'ylab ketgan.Shaharning g'arbiy chegarasi Ko'kchaga (aslida Kaxak yani ko'xcha qalacha) yetib borgan. Muhammad Solihning "Tarixi Jadidayi Toshkand" ("Toshkentning yangi tarixi") nomli asarida ta'riflanishicha bahor mavsumlarida shaharning shimoliy - g'arbiy darvozalari orqali Dashti qipchoqqa yo'nalgan qadimgi karvon yo'lining qariyb uch farsaxlik masofadagi adirlik lolalazor bilan qoplangan. Arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha XV- XVI asrlarda Toshkent ayniqsa janubga Beshyog'och hamda sharqqa Shayxontohurga tomon kengayib borgan.Xuddi shu davrda Qoratosh va Olmazor mahallalari oralig'ida yangi o'rda barpo etilgan.Toshkentning bizgacha saqlanib qolmagan XV - XVI asr me'moriy obidalaridan birining qoldiqlari 1981-1982-yillarda avvalgi Qoratosh va Olmazor mahallari oralig'ida qurilayotgan Benikov nomidagi rassomchilik o'quv yurtining yangi binosi poydevori ostidan topib o'rganildi . [3.B.48-49]

Toshkent shahri haqidagi axborotlarga kelsak Miller bu haqda Shahar uzunasiga va bo'yiga to'rt verstdan keladi, balandligi ikki sajen chamasida tuproq devor bilan o'ralgan



deb yozgan edi. Sokolovning yozishicha, Yunusxo‘ja davridagi (1784 - 1800) tamir ishlaridan so‘ng, shahar devorining balandligi 26 fut (7,9 metr) eni poydevorida - 6 fut (1.8 metr) va tepa qismida - 3 fut (0.9 metr) bo‘lgan.

Muhammad Solih o‘z davrida shaharning to‘rtta chekka nuqtasini ko‘rsatadi: Sharqda - Shayx Shibliy arig‘i yonidagi Xitoy darvozasi, g‘arbda - Ko‘kcha darvozasi, shimolda - Chig‘atoy darvozasi, janubda - Qang‘li darvozasi. Shaharning sharqiy darvozasidan to g‘arbiy darvozasigacha 8500 qadamni, shimoldan janubga esa 8100 qadamni tashkil etgan. Tarixi Jadidayi Toshkand kitobida Toshkentning 12 ta darvozasi borligi va bu darvozalar XIV asr oxiri va XV asr boshlarida ham mavjudligi aytilgan. Shahar darvozalari har doim ham 12 ta bo‘lavermagan. Vaqti - vaqti bilan u yoki bu darvoza zarur deb topilmaganda berkitib tashlangan. Shu sababli bo‘lsa kerak shahar darvozalarining soni turli manbalarda turlicha ko‘rsatilgan. Miller - 8, Pospelov - 6, Filipp Nazarov - 12, faqat Miller darvozalarining nomini va ular shaharning qaysi tomonida joylashganini aytib o‘tgan: Samarqand darvoza - janubi - g‘arbda, Beshyog‘och va Tersariq, darvozalari - janubda, Shayxontohur darvozasi - sharqda, Tarsaxon darvozasi - shimoli - g‘arbda, QaTochki(Ko‘kcha) darvozasi - g‘arbda.[4.B.30 - 31]

XIX asrning boshlarida Toshkentda bo‘lgan Filipp Nazarovning guvohlik berishicha shaharning eski qismidan tashqarida joylashgan qal‘a baland devor bilan o‘ralgan bo‘lib, unga 10 mingdan ortiq askarlarni joylashtirish mumkin bo‘lgan. Toshkentning bosib olinishi jarayonida o‘rdaning mudofaa devorlari va harbiy qurilmalariga anchagina zarar yetkazilgan edi. Toshkent shahrining yangi qismiga asos solinishi aynan ana shu qasr devorlari va O‘rdaning mudofaa devorlarini buzishdan boshlandi. XX asr boshlarida Toshkentning yangi qismlari juda xunuk ko‘rinarli. Ma‘muriyat obodonchilikka e‘tibor bermasdi, chunki u yerda aholining mutlaqo kambag‘al qatlami istiqomat qilardi. Shuni ta‘kidlash joizki rus me‘morlari davlat va jamoat binolari hamda xususiy uylarni loyihalashtirish chog‘ida mahalliy qurilish va me‘morchilik yutuqlariga tayanganlar.

Toshkentning eski va yangi qismlariga ajratish 1895 - yilda Sirdaryo general - gubernatori tomonidan qonunga tayanmasdan amalga tatbiq etilgan. Shaharning yangi qismining qurilishi va rivojlanishi shahar ma‘muriyati faoliyati bilan bog‘liq. [5.B.24-25]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Д.А. Алимova, М.И. Филанович Тошкент тарихи. Т.: ART Flex nashriyoti - 2009
2. М.М. Vaxitov, Sh.R. Mirzayev Me‘morchilik Т.: Tafakkur nashriyoti - 2010
3. А.Мухаммаджонов Кадимги Тошкент Т.: ССР Фан -1988
4. А Уринбоев, О.Буриев Тошкент Мухаммад Солих Тавсипида Т.: Фан - 1983
5. Жаннат Исмоилова XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошларида Тошкентнинг Янги шаҳар қисми тарихи Т.: Fan va Texnologiya - 2004

